

OLIY TA'LIM IMIDJINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY- PEDAGOGIK ZARURATI

Aminov Xayotjon Xalimjonovich

Oriental universiteti prorektori

Salomov Sirojiddin Abdimalikovich

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limdagi innovatsion jarayonlarda OTM imidjini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, mazmunini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, innovatsion ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlarini aniqlash, oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantirishni amalga oshirishning bosqichlarini aniqlashtirish, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish modelini ishlab chiqish, oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kreativ fikrlash, imidj, tanqidiy fikrlash, key-stadi, amaliyotga tatbiq etish.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-педагогическая необходимость формирования имиджа вуза в инновационных процессах в образовании, научно-педагогическое обоснование его содержания, определение организационно-педагогических условий формирования имиджа вуза в условиях инновационного образования, выяснение этапов реализации формирования имиджа вуза, разработка модели совершенствования организационно-управленческих механизмов, организационно-педагогики формирования имиджа вуза. освещены вопросы

разработки предложений и рекомендаций по совершенствованию механизмов развития условий.

Ключевые слова: *самостоятельное образование, творческое мышление, имидж, критическое мышление, кейс-стади, реализация.*

Abstract: *In this article, the socio-pedagogical necessity of forming the image of HEIs in innovative processes in education, the scientific-pedagogical justification of its content, the determination of the organizational-pedagogical conditions of the formation of the image of a higher education institution in the conditions of innovative education, the clarification of the stages of the implementation of the formation of the image of a higher education institution, the development of a model for the improvement of organizational-management mechanisms, the organizational-pedagogy of the formation of the image of a higher education institution issues of development of suggestions and recommendations for improvement of mechanisms of development of conditions are covered.*

Key words: *independent education, creative thinking, image, critical thinking, case study, implementation.*

Kirish

Ta'limning globallashuvi va axborotlar oqimining tezkor rivojlanishi bilan kechayotgan bugungi taraqqiyot davrida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Bu jarayon o'z navbatida, innovatsion jarayonlarga bog'liq ravishda oliy ta'lim muassasalarining infrastrukturasidan uning faoliyat yo'nalishlari, missiyasi, ta'lim mazmuni, professor-o'qituvchilar, talabalar tarkibi bilan bog'liq komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi bilan asoslanmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim

tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish yuzasidan ustuvor vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini boshqarish jarayonining zamonaviy infratuzilmasini yaratish, boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish hamda innovatsion menejmentning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish ta’lim menejmenti oldida turgan muhim vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish" haqidagi qaroriga muvofiq oliy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va axborot-kommunikatsion texnologiyalar sohasiga oid adabiyotlarni o‘rganish; forsayt tahlil, anketa; test; suhbat; modellashtirish; pedagogik kuzatish; intervyu; pedagogik tajriba; ekspert baholash; matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Natijalar

Oliy ta’lim muassasalari imidjini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

ta’limdagi innovatsion jarayonlarda OTM imidjini shakllantirishni amalga oshirish mazmuni ijtimoiy-madaniy va innovatsion rivojlanish sohalarining boshqaruv va tashkiliy tuzilma hamda o‘qitish tizimlari o‘rtasidagi kooperativ uyg‘unligiga ustuvorlik berish bilan bog‘liq takliflardan oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan malaka

talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 5 fevraldagi 89-03-5243-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini kasbiy innovatsion bilimini rivojlantirishga xizmat qiluvchi malaka oshirish kurslarining o'quv reja va dasturlari mazmuni takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantirishning rivojlanish yo'nalishlari (tashkiliy-tuzilmaviy, faoliyatli, antropologik, raqamli) mazmuni va ko'rsatkichlari matritsasi barqaror innovatsion rivojlanish (posttransformatsion) ko'rsatkichlarini belgilash bilan bog'liq takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 27 oktabrdagi 655-son "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda imidj qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 5 fevraldagi 89-03-5243-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari imidjini shakllantirishning normativ-huquqiy va tashkiliy-pedagogik sharoitlarini yaratish mexanizmlari takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlari oliy ta'lim muassasasi imidjini shakllantirishni amalga oshirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish modeli hamda oliy ta'lim muassasasi rahbar kadrlarining transformatsion etakchiligini rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlanmalar, O'zbekiston-Belarus hamkorligidagi "Zamonaviy AKT dan foydalangan holda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini ishlab chiqish" loyihasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 30 dekabrda 89-03-5243-son ma'lumotnomasi). Mazkur loyiha oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning uzluksiz tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Amaliy natijalar:

oliy ta'lim muassasalari imidjini shakllantirishning mazmun mohiyati

ochib berilgan, imidj bosqichlari, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalari imidjini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash va dinamik rivojlanish darajasini belgilovchi ochiq elektron monitoring tizimi yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalari imidjini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xulosa

Bu natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, talabalar ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishdi. Mustaqil ta'lim orqali ularda bilim olishga qaratilgan ijodiy yondashuvlar shakllandi va talabalarning mustaqil ishlar bo'yicha natijalari sezilarli darajada oshdi. Kelgusida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion usullardan foydalanish lozim. Masalan, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar orqali ta'lim jarayonini boyitish, guruhda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish va talabalarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish muhimdir. Shu orqali talabalarning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish va ularning bilim darajasini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, talabalarning mustaqil ta'limni o'zlashtirish natijalariga ko'ra, ularning mantiqiy tahlil qilish, ijodiy yondashuv va masalalarni yechish qobiliyatlarining rivojlangani aniqlandi. Yakuniy baholash natijalarida talabalarning ko'pchiligi yuqori ballga ega bo'lgan, bu esa mustaqil ta'lim orqali ularda iqtisodiy bilimlar asoslarini samarali o'zlashtirish va kelgusida ularni amaliyotga tatbiq etishga tayyorligini ko'rsatadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi 2019 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5544-sonli Farmoni
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori.
3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya. – T.: Fan, 2007. – 160 b.
4. Гарнов, А.П., Краснобаева, О.В. Малые инновационные предприятия как форма организации вузами инновационной деятельности / А.П. Гарнов, О.В. Краснобаева // Человеческий капитал и профессиональное образование. 2012. № 2(2). С. 21-27.
5. Гретченко А.А. Проблемы инновационной деятельности в вузе // Вестник Российской экономической академии имени Г.В. Плеханова, 2009. № 6. С. 3-9.
6. Gaibnazarova Z. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda intellektual kapital nazariyasi va uslubiyatining modernizatsiyalashga ta'siri. Iqtisodiyot fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2020. 77 b.
7. Йермакова, Э.Е. Система управления интеллектуальной собственностью в вузе / Э.Е. Ермакова // Университетское управление: практика и анализ. 2012. № 3. С. 4-9